

### KAMEDYA JANRDAGI SATIRA VA YUMORNING FARQLASH XUSUSIYATLARI

**Reyimboev Davronbek,**

*O'zbekistan Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali Teatr san'ati fakulteti Kino va televideniye rejissyorligi yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada komediya janrining yumor va satira turi haqida aytib o'tilgan. Shuningdek ularning farqlanishi, adabiyotshunoslikda qo'llanilish tartibi, muallifning qanday maqsadda yozishi va qaysi turiga asoslanishi ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** satira, komediya, yumor, muallif, adabiyot, janr, hazl, kulgi.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются типы юмора и сатиры в комедийном жанре. Также обсуждаются их различия, способы их использования в литературоведении, цель, с которой автор пишет, и на каком типе они основаны.

**Ключевые слова:** сатира, комедия, юмор, автор, литература, жанр, юмор, смех.

**Annotation.** This article discusses the humor and satire types of the comedy genre. It also discusses their differences, the way they are used in literary studies, the purpose for which the author writes, and what type they are based on.

**Key words:** satire, comedy, humor, author, literature, genre, humor, laughter.

#### KIRISH

Hayot haqiqatlarini, inson tabiati va jamiyatdagi nuqsonlarni kulgu orqali aks ettiruvchi san'at turi, komediya hisoblanadi. Komediya hayotning mazmuni, inson mavjudligining bema'niligi vamaqsadni izlash haqidagi falsafiy va ekzistensial savollarga chuqur kirib borishi mumkin [1.364-b].

Kulgi har qanday vaziyatda ham bir xil mazmun va maqsadga ega bo'lmaydi. Komediya uchun ko'pincha irqchilik, gomofobiya va tengsizlik kabi masalalarni hazil orqali hal qilishadi. Ushbu masalalarning bema'niligini ta'kidlab, ular tomoshabinlarni o'zlarining noto'g'ri qarashlari va xurofotlari haqida fikr yuritishga undashlari mumkin [2.6-b]. Shuning uchun adabiyotshunoslikda komediya janrining ikki yirik ustuni — yumor va satira bir-biridan keskin farqlanadi. Ularni ajratib turuvchi asosiy jihatlar bu muallifning kulgi ob'ektiga bo'lgan munosabati va tanqidning keskinlik darajasidir. Bunda yozilmoqchi bo'lgan asar maqsadiga qarab farqlanadi ya'ni insonning xatosi ustidan do'stona jilmayish yumor hisoblanadi, satira esa jamiyatdagi chirkinliklarga qarshi nafrat bilan kulishdir. Yumor tuzatishni, satira esa yo'q qilishni maqsad qiladi.

Yumor - bu “Shirin” va xayrixoh kulgidir. Uning zamirida insoniy qusurlar, kundalik hayotdagi mayda kamchilik, xatolar va tushunmovchiliklar yotadi. Yumoristik kulgining maqsadi qahramonni kamsitish yoki yo‘q qilish emas, balki uning kamchiligini o‘ziga ko‘rsatib, samimiy kulgi orqali namoyish etishdir. Yumorda yozuvchi o‘z qahramoniga qarata hamdardlik va mehr hissini saqlab qoladi. Masalan, G‘afur G‘ulomning "Shum bola" qissasidagi sarguzashtlar uncha og‘ir bo‘lmagan yengil yumorga asoslangan bo‘lib, o‘quvchida qahramonga nisbatan nafrat emas, balki qiziqish va nim tabassum uyg‘otadi. Har qanday jiddiy asar roman, qissa, hikoya, doston, she‘rlarda, xalq ijodi namunalarida ham yumor bo‘ladi. G‘arb adabiyotidagi asosiy namoyandalari Servantes, L. Stern, Ch.Dikkens, N.V.Gogol, M.Tven, o‘zbek adabiyotida esa Muqimiy, G‘.G‘ulom, A.Qahhor, S.Ahmad va boshqalar tasviriy san’atda Yumor voqea, narsa, jonivor, ayniqsa, kishilarning xatti-harakati kulgili tasvirlangan, yengil tanqid etilgan, umuman ko‘rinishi, ishi hazilmutoyiba tarzida ko‘rsatilgan tasvir ,ko‘pincha grafika asaridir.

Satira esa komiklik turi, tasvir obyektni ayovsiz kulgi vositasi orqali anglashdir. Voqelikni badiiy aks ettirishning o‘ziga xos usuli bo‘lib, unda jamiyatdagi bema’ni, asossiz, noto‘g‘ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi. Voqealarning real ko‘rinishini o‘zgartirib, oshirib, bo‘rttirib, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko‘pgina turlari yordamida yaratilgan obraz orqali Satira obyektiga „ishlov“ beriladi. Satira muallifi komiklikning boshqa turlaridan yumor, hikoya va boshqalar ham foydalanishi mumkin, biroq satira uchun salbiy tus berib, keskin ifodalangan estetik obyekt xarakterli hisoblanadi.

Satira Qadimgi Rimda lirikaning fosh qiluvchi janri sifatida tan olingan. Keyinchalik o‘zining janriy xususiyatlarini yo‘qota borib, ko‘pgina janrlarning o‘ziga xos xususiyatini belgilovchi adabiy jinsga o‘xshab qoladi. Satira ijtimoiy kurashning eng muhim vositasi bo‘lib, unga tarixiy sharoit, milliy va ijtimoiy taraqqiyot faol ta’sir ko‘rsatadi. Satiraning ma’naviy ta’sir kuchining o‘tkirligi unda inkor qiluvchi kulgu orqali yaratilgan idealning umumxalq va universal bo‘lishi bilan belgilanadi. Satiraning estetik vazifasi tubanlik, nodonlik va boshqa ijtimoiy illatlarga qarama-qarshi tarzda kishilarda yuksak insoniy tuyg‘ularni uyg‘otish va qayta tiklashdan iborat. Satirada muallifning individualligi kulgu ostiga olingan obyekt haqida murosasiz fikr aytish, unga aniq g‘oyaviy munosabat bildirish orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida ham satirik kulguga yo‘g‘irilgan asarlar anchagina. Said Ahmad hajviy asarlar ustasi hisoblanadi uning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” spektakili hamda “Qoplon” hikoyasi

satiraning yaqqol na'munasidir. Ushbu asar orqali jamiyatdagi ayrim insonlarning xarakteri, qilayotgan nomaqbul xatti-harakatlari ustidan kulinadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, kulguli asarlarning hammasi ham yengil kulguga asoslangan bo'lavermaydi. komediyaning jiddiy mavzularga murojaat qilish qobiliyati janrning qimmatli jihati hisoblanadi. Komediyaachilar tomoshabinlarni kuldirishga qodir, shu bilan birga ularning istiqbollari tanqid qilishadi va ularni muhim masalalar haqida tanqidiy fikrlashga undashadi. Ya'ni yumor bizga o'z xatolarimiz ustidan kulishni va ularni kechirishni o'rgatsa, satira bu xatolardan nafratlanishga va ularni tuzatishga undaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.Mitta. "Kinoda rejissura va dramaturgiya". 2014 y.
2. Xanjara Abdulqosimova. "Kino san'ati asoslari". O'zbek milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent - 2009-yil.
3. "San'at tarixi va nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi Umarova Gulnora Barievna 2015 y.
4. Said Ahmad. Tanangan asarlar II jild. "Sharq nashriyoti" - 2000-yil.